

SIVILIZATSIYANING PAYDO BO‘LISHIDA DARYOLARNING O‘RNI XUSUSIDA

Abdusamad Qurbonov

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Charos Shodieva

Termiz davlat universiteti 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi dunyo tarixida mavjud bo‘lgan sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishida suv yo‘li, suv inshootlari hisoblanmish daryolarning ahamiyati to‘g‘risida bir qator tahliliy ma‘lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sivilizatsiya, daryo, kashfiyot, Mesopotamiya, Old Osiyo, O‘rta Osiyo, Qadimgi Eron, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hind, Bobil, Harappa, Moxenjadaro.

“Sivilizatsiya” tushunchasi fanga XVIII asrda yevropalik olimlar tomonidan kiritilgan bo‘lib, birinchi navbatda, G‘arb madaniyatidagi o‘zlikni anglash jarayonini aks ettiradi.

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida jahonda iqtisodiy va harbiy jihatdan ustun bo‘lib olgan Yevropa madaniyat maydonida ham yakkahukmronlik qilishga intilib keldi. Natijada davlatchilik, huquq va siyosiy sohasidagina emas, kundalik turmush va madaniyat sohalarida ham yevropaliklar o‘z namunalarini butun dunyoga joriy qilishga harakat qidilar.

Biroq jahondagi eng qadimgi sivilizatsiyalar G‘arb Yevropasida emas balki Qadimgi Sharqda baydo bo‘lib o‘tganligi dunyo fanida ma‘lum.

Qadimgi Sharq tushunchasining o‘zi ham turli davrlarda o‘zgarib turgan. Ko‘pchilik olimlar Qadimgi Sharqqa Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Qadimgi Eron, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy, ya‘ni O‘rta Yer va Egey dengizi qirg‘oqlaridan Tinch okeanigacha bo‘lgan yerlarni kiritadilar. Hozir bunga eng qadimgi sivilizatsiyalar qatorida qaralayotgan O‘rta Osiyoni va Qadimgi Turk sivilizatsiyasining ilk makoni bo‘lgan, bugun Yevroosiyo deb atalayotgan Buyuk Dashtni ham kiritish mumkin.

Qadimgi Sharq mamlakatlari uchun xo‘jalik yuritishning sug‘orma dehqonchilik usuli unumli bo‘lib, shu sababli bu mamlakatlar yirik daryolar – Nil, Dajla va Frot, Hin va Gang, Xuanxe va Yanszi, Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida shakllangan, deb hisoblaydilar. Ba‘zi olimlar shu jihatga asosiy e‘tiborni qaratib, insoniyat taraqqiyotining bu davrini “Daryolar sivilizatsiyasi” deb ham ataydilar.¹

Shunday sivilizatsiyalar dastlab paydo bo‘lgan joy Yaqin Sharqda aniqlanganligi sababli, bu mintaqa Sharqning boshqa hududlariga nisbatan ajratilib qaraladi.

Global siyosatning eng muhim mojarolari turli sivilizatsiyalarga mansub bo‘lgan millatlar va guruhlar o‘rtasida vujudga keladi.² Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuv jahon siyosatining ustuvor omiliga aylanadi.³

¹ Мечников И.А. Цивилизация и великие исторические реки. <http://rukni.net/books//25844-tcivilizatsiya-i-velikie-istoricheskije-reaki/>.

² Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 5 бет.

³ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций.

Sivilizatsiyaning shu xususiyatidan kelib chiqib, bir qator olimlar eng qadimgi ijtimoiy-madaniy tizimlarni shu hududda mavjud bo'lgan sivilizatsiyaning taqdiri va jahon tarixiy jarayonida egallagan o'rniga qarab uch guruhga bo'lishni taklif qilmoqdalar.⁴

Birinchi guruhga hozir ham qadimgi sivilizatsiyalarning izi va ta'siri yaqqol sezilib turgan mamlakatlarni kiradi. Bunga misol tariqasida xitoy, hind, eron(fors), yaxudiy sivilizatsiyalarini kiritib, ularni "tirik" sivilizatsiyalar deb atash mumkin. Ularda fundamental asoslar, qadriyatlar tizimi, mentalitetning o'ziga xos jihatlari, aholining ma'lum dinlarga – konfutsiylik, buddaviylik, zardushtiylik (keyichalik islom), yahudo dinlariga sodiqligini asrlar osha yashab kelayotganligi ushbu jamiyatning umumiy jihati hisoblanadi.⁵

Ikkinchi guruhni shartli ravshda zavolga yuz tutgan (o'lik) sivilizatsiyalar tashkil qiladi. Bu sivilizatsiyalar guruhiga Uruk, Ur, Kish va boshqa shumer shahar-davlatlari; Tir, Sidon va boshqa Finikiya shaharlari; Qadimgi Misr, Karfagen, Bobil, Ossuriya, Lidiya podsholigi, Ururtu davlati, Qadimgi Gresiya va Qadimgi Rim imperiyasi kabilar kiradi. Qadimgi Turk sivilizatsiyasi ham ko'p jihatdan shu guruhga mansub hisoblanadi.⁶

Uchinchi guruhga olimlar "afsonaviy" deb ataydigan sivilizatsiyalar ham alohida guruhni tashkil qiladi. Bularga ammoriyalar, oromiylar, kimmeriyalar, skiflar va boshqa ko'chmanchi xalqlarning turli siyosiy birikmalari kiradi.⁷

Dajla va Frot daryolarining o'rta va quyi oqimida joylashgan, hududi, asosan, tekislikdan iborat viloyatni qadimgi yunon geograflari Mesopotamiya⁸ deb atashgan. Qadimgi sivilizatsiyaning rivojlanish markazi ushbu hududning jangubida – qadimgi Bobilda joylashgan. Bobilning shimoliy qismi Akkad, janubiy qismi esa Shumer deb atalgan. Ossuriya esa Shimoliy Mesopotamiyaning notekis, tepaliklardan iborat cho'l qismida joylashgan.

*Shumerlar*⁹ mil.avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Mesopotamiyaning janubida paydo bo'lib, asta-sekin butun mesopotamiya hududini egallaydilar. Bundan olti ming yil ilgari bu yerda insoniyat tarixidagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri – Shumer sivilizatsiyasi yaratildi.

Ba'zi olimlar shumer afsonalariga asoslanib, ularning sivilizatsiyasi bundan 7,5-8 ming yillar ilgari paydo bo'lgan deb hisoblaydilar. Biroq arxeologik tadqiqotlar natijasida bu da'vo isbotlanmagan.¹⁰

Shumerlar o'zlarini "sangngiga" – "qora boshlilar" deb ataganlar. Bu xalqlarni shumer deb atashni birinchi bor XIX asrda nemis-yaxudiy olimi Yulius Oppert (1825-1905) "Addak va Shumer shohi" deb o'qilgan qadimgi yozuv asosida taklif qilgan.

Shumerlarning kelib chiqishi hozirgi kungacha noma'lum bo'lib qolmoqda. Shumerlarning kelib chiqishi Osiyoning tog'li tog'li qismidan bo'lishi kerak degan taxminlar bor. Olimlarning keyingi tadqiqotlariga qaraganda, shumerlarning kelib chiqishi oriylardan oldingi hind-eron (dravid) xalqlariga yaqin bo'lib, Hindiston yarimorolining janubiy qismidan kelgan bo'lishi mumkin. Ayrim arxeologik va antropologik tadqiqotlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.¹¹

Qadimgi Misr sivilizatsiyasi deganda avvalo ko'z oldimizga Nil daryosi kelishi tabiiy hol.

⁴ Эргашев Ш. "Қадимги цивилизациялар" Тошкент: "Ўзбекистон"НМИУ, 2016. - 5 бет.

⁵ Ўша асар - 5 бет.

⁶ Ўша асар - 6 бет.

⁷ Ўша асар - 6 бет.

⁸ Месопотамия-қадимги юнончадан олинган бўлиб, мезо – "ўрта" ёки "оралиқ", потамос – "дарё" деган маънони англатади. Дажла ва Фрот оралиғидаги ерни қадимги юнонлар "Мезопотамия" деб атаганлар. Кейинчалик бу атама "Месопотамия" шаклида кенг тарқалган.

⁹ Емельянов В.В. Древний Шумер. Очерки культуры. – С. 17-19.

¹⁰ Баданин М.А. Древние цивилизации и пророки. – С. 28-30.

¹¹ Чайлд Г. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. –М.: ЗАО Центрполиграф, 2008. – С. 47-48

Nil va uning atrofidagi hosildor yerni misrliklar dunyoda hamma narsadan yaxshi ko'radigan, o'zlarining san'at asarlarida aks ettirishni sevadigan gulga – nilufarga o'xshatishgan. Agar Misrning xaritasiga diqqat bilan qarasaq, u rostdan ham ingichka uzun shoxcha oxirida ochilayotgan gulga o'xshaydi. Gul – bu yelpig'ichni eslatuvchi Nil deltasi, shoxcha esa egilib – bukilib oqayotgan daryo o'zanidir.¹²

Misr bu – Nil vodiysidir. U ikki tomondan ham qumliklar bilan siqilib qo'yilgan tor hosildor yerdan iborat. Shu bir quloch hosildor yer hozirgi Misr hududining 3,5%ini tashkil qiladi. Qolgan 96,5% kimsasiz sahrodan iborat. Bugun ham xuddi qadimdagi singari Misr aholisining 99,5%i mana shu o'zlashtirilgan yerda istiqomat qiladi. Bu yer ularni boqadi. Bu yerda bir kv.km. da 1200 kishi yashaydi¹³. Qadimgi misrliklarda o'zlari o'zlashtirib olgan shu bir quloch hosildor yerdan tashqariga chiqish uchun arzigulik bir sabab bo'lmagan. Bu hosildor yerni ikki tomondan o'rab turgan baland tog'lar o'ziga xos chegara bo'lib, misrliklarni tashqi dushmandan ham himoyalab turgan.¹⁴ Misr ulvr uchun huzur-halovat, “noyob katta voha, yovvoyi cho'lda inson qo'li tegmagan bokira bog'” edi. Ular bu “bog'”ni e'zozlab “Kēmi”- (mamlakatning qadimgi misrcha nomi so'zma-so'z tarjima qilinganda: hosildor tuproq rangidan – “Qora” deb atalgan)¹⁵ Qora tuproq deb atashgan. Qora tuproq – bu kishilarning tinimsiz mehnati tufayli jilovlangan Nil toshqinlari katta – katta maydonlarga oqizib kelgan hosildor tuproqdir. Isrliklar bu vora tuproqdan yiliga uch marta hosil oladilar. Biroq bu hosil suv yetib borgan vodiyyagina tegishli bo'lib, undan narida suvsiz qumliklar – cheksiz Qizil yer yastanib yotibdi.

XX asrning 20-yillarida Hindistonda amalga oshirilgan bir qator arxeologik qazishmalar orqali jahon sivilizatsiyasida davri bo'yicha Mesopotamiyadagi shumerlar va Misrdagi ilk firavnlardan davridan qolishmaydigan qadimgi sivilizatsiyalar borligi aniqlandi. Arxolog olimlar Sahni va Banerji ko'z oldida rivojlangan hunarmandchilik, ajoyib shaharlar va o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan sivilizatsiya namoyon bo'ldi. Dastlab arxeologlar ushbu sivilizatsiyaning eng yirik shahar mrkazlari – Xarappa va Mohenjo – Daroni ochdilar. Bu sivilizatsiya ochilgan birinchi shahar nomidan kelib chiqib, Xarappa sivilizatsiyasi deb ataldi.

Shu tariqa Hind sivilizatsiyasini qadimiylik bo'yicha yer yuzida Mesopotamiya va Misr sivilizatsiyalari bilan tengdosh bo'lgan uchinchi sivilizatsiya deb atash mumkin. Biroq ba'zi tadqiqotchilar Xarappa sivilizatsiyasini endi o'rganilayotganini nazarda tutib, eng qadimgi bo'lish ham mumkin deya ta'kidlamogdalar¹⁶.

Hind sivilizatsiyasi ham yuqoridagi sivilizatsiyalar qatori daryolar bo'yida shakllangan va sug'orma dehqonchilikka asoslangan.

Hindlar o'z daryosini “Sindhu” deb atashgan, forslarda “Hindu” degan nom olgan, yunonlar esa bu so'zni yanada buzib “Ind” deb ataganlar (hindlar o'z vatanini hindu tilida Bxorat deb ataydilar¹⁷

Ko'plab arxeologlar Qadimgi Hind sivilizatsiyasi Hind havzasi va qo'shni Belujistondagi mahalliy dehqonchilik madaniyati asosida vujudga kelgan avtohton sivilizatsiya deb hisoblashadi¹⁸.

¹² Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 61 бет

¹³ Франкфорт Т., Франкфорт Г.А., Уилсон Дж., Якобсен Т. В переддверии философии. Духовные искания древнего человека. – С. 32. (Таккослаш учун: -М., hozirda Evropaning aholi eng zich joylashgan davlati Belgiyada 1 kv.km. da 700 киши, Ява оролида эса 900 киши истикомат қилади).

¹⁴ Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 61 бет

¹⁵ Монте Пьер. Повседневная жизнь египтян во времена великих фараонов. – С. 9.

¹⁶ Елена Элк. Индия. – С. 3.

¹⁷ Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 174 бет.

¹⁸ Древняя Индия – цивилизация древней Индии.

Olimlarning taxmin qilishlaricha, mil.avv. 2-mingyillik o'rtalarida Akkadda imperiya tipidagi rejimning vujudga kelishi, o'sha davrdagi savdo an'analarning kengligiga qaraganda, o'zini gullab yashagan davrini boshdan kechirayotgan Hind sivilizatsiyasining siyosiy an'analari tasirida yuz bergan bo'lishi mumkin¹⁹.

“Xitoy” (Kitay) atamasi faqat rus tiliga xs bo'lib, qadimda Uzoq Sharqda, Xitoyning shimoliy – sharqiy chegaralarida yashagan qabila – kidanlar nomidan olingan. Boshqa bir taxminga ko'ra Xitoy bilan Kasbiy dengizning sharqiy qirg'oqlari oralig'ida yashovchi qabilalar Kitay (“Gullayotgan o'lka”) deb atashgan va “Xitoy” atamasi shundan kelib chiqqan²⁰

Yevropada bu mamlakatni oxirgi oxirgi sulola – sin nomidan olib “China” deb atashadi. Xitoyliklar o'z mamlakatlarini qadimdan “Chjun Go”, ya'ni Markaziy, O'rta podsholik yoki “Tyan – Sya” – Osmon ostidagi davlat deb ataydilar.

Tashqi ta'sirlarga deyarli uchramagan bu sivilizatsiya rivojida o'ziga xoslik uning benihoya katta hududi va yopiqligi bilan xarakterlanadi. Bu yuksak madaniyatga xos sivilizatsiya bilan faqat mil.avv. II asrda Chjan szyanning O'rta Osiyoga sayohati tufayli aloqa o'rnatildi²¹

Boshqa mintaqalarda bo'lgani singari Xitoyda ham geografik sharoit hayotning maromini belgilab kelgan. Xitoy tekisliklaridan ikkita buyuk daryo – Xuanxe va Yanszi oqib o'tadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki daryolar har doim insoniyat rivoji uchun juda katta naf keltirgan. Birinchidan, tabiiy iqlim sharoiti va dehqonchilikka asos bo'ladigan unumdor yerlar. Ikkinchidan, ushbu jihat kelajakda insonlar uchun mehnat unumdorligining ortishi natijasida ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishiga olib keladi. Uchinchidan, aholi qo'lida ortiqcha mahsulot to'planishi ular o'rtasida savdo – sotiqning rivoji kuzatiladi. To'rtinchidan, savdo – sotiq rivoji kelajakda shahar madaniyatining o'sishiga oli keladi va bu o'z navbatida insoniyat tamadduniga asos bo'ladigan omillar bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Мечников И.А. Цивилизация и великие исторические реки. <http://rukhnigi.net/books//25844-tsilivilizatsiya-i-velikie-istoricheskie-reki/>.
2. Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 5 бет.
3. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций.
4. Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 5 бет.
5. Месопотамия-қадимги юнончадан олинган бўлиб, мезо – “ўрта” ёки “оралиқ”, потамос – “дарё” деган маънони англатади. Дажла ва Фрот оралигидаги ерни қадимги юнонлар “Мезопотамия” деб атаганлар. Кейинчалик бу атама “Месопотамия” шаклида кенг тарқалган.
6. Емельянов В.В. Древний Шумер. Очерки культуры. – С. 17-19.
7. Баданин М.А. Древние цивилизации и пророки. – С. 28-30.
8. Чайлд Г. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. –М.: ЗАО Центрполиграф, 2008. – С. 47-48.
9. Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 61 бет.

¹⁹ Мортимер Улдер. Древний Индостан. Раннаиндийская цивилизация. – С. 58.

²⁰ Грей Д.Г. История Древнего Китая. –С. 1.

²¹ Закутен А. Особенности и основные этапы развития древнекитайской цивилизации. – С. 65.

10. Франкфорт Т., Франкфорт Г.А., Уилсон Дж., Якобсен Т. В переддверии философии. Духовные искания древнего человека. – С. 32. (Таққослаш учун: -М., ҳозирда Европанинг аҳоли энг зич жойлашган давлати Белгида 1 кв.км. да 700 киши, Ява оролида эса 900 киши истиқомат қилади).
11. Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 61 бет.
12. Монте Пьер. Повседневная жизнь египтян во времена великих фараонов. – С. 9.
13. Елена Элк. Индия. – С. 3.
14. Эргашев Ш. “Қадимги цивилизациялар” Тошкент: “Ўзбекистон”НМИУ, 2016. - 174 бет.
15. Древняя Индия – цивилизация древней Индии.
16. Мортимер Уллер. Древний Индостан. Раннаиндийская цивилизация. – С. 58.
17. Грей Д.Г. История Древнего Китая. –С. 1.
18. Закутен А. Особенности и основные этапы развития древнекитайской цивилизации. – С. 65.
19. Курбанов, А. М. (2023). Алтын-Депе–древнейшее место культовое место в Средней Азии. *Археология Евразийских степей*, (1), 107-110.
20. Курбанов, А. М. (2019). Бронза даври ибодатхоналарида учрайдиган алтарлар. *Взгляд в прошлое*, (24).
21. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
22. Маллаев, Н. Р. (2021). Международно-правовое регулирование трансграничных водных ресурсов государств Центральной Азии. *Бюллетень науки и практики*, 7(5), 391-401.
23. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.
24. Mallaev, N. R. (2021). International legal framework for the regulation of transboundary water resources in Central Asia.
25. Mallaev, N. R., & Djalilov, S. S. (2021). Political and Legal Mechanisms of the Fight against Corruption in Uzbekistan and High Effective Measures against It. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 1-4.